

## O'ZBEKISTON IQTISODIY VA IJTIMOYIY GEOGRAFIYASI DARSLARIDA O'QUVCHILARDA MUSTAQIL FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH

**Akbarjon Isaev, Asliddin Arabboyev**

*Andijon davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fani va uning o'qitish mobaynida o'quvchi-yoshlarda mustaqil fikrlashga o'rgatishda muammoli ta'limdan foydalanish usuli ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, inson geografiyasi, klasterli usul, diagrammali topshiriq, "Muammoli vaziyat"

### **KIRISH**

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanini o'qitishda Muammoli o'qitish jarayonida o'quvchi-talabanning mustaqillik roli reproduktiv o'quv usullariga solishtirib qaraganda ancha samarali bo'ladi. Mazkur o'qitishning maqsadi o'quvchilar bilan ishlash jarayonida ta'lim-tarbiya masalalari, muammo va savollariga javob qidirish, ularni hal etish yo'llari bilan birga yangi bilimlarni o'zlashtirishni, o'quvchilar o'quv faoliyatida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish va hal etish bo'yicha o'qituvchi (pedagog)lar uarda qiziqish uyg'ota olishdan iborat.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Muammoli o'qitish o'z ichiga olgan darslarda o'quvchilarga yangi ma'lumotlarni o'zida saqlagan masalalarni xal qilish taklif qilinadi. Bundan o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish va ularni amalda mustaqil qo'llash usullarini egallashlari ko'zda tutiladi. Bunday masalalardan bilimlarni tekshirishda o'zlashtirishning chuqurligi va ongli ekanligini aniqlash uchun foydalaniladi.

Muammoli o'qitish keying yillarda psixolog olimlar, didaktiklar metodistlar, ijodkor o'qituvchilarning e'tiborini tobora ko'proq jalb qilmoqda. Olimlar M. Artiqova, V.Qodirov va filologiya fanlari nomzodi, dotsent F.Kiyikboyevlar muammoli darsni quyidagi bosqichlarga bo'lishini taklif qiladilar:

- Biror masalani o'rtaga tashlash va uning tahlili

Muammo yechimini izlash (avvalgi bilimlarni muhimlashtirish, farazlarni ilgari surish, eng to'g'ri farazni tanlash va uni ochib berish)

- Muammoni jamoaviy xal qilish;

- Yechimning to'g'riligini umumlashtirib tekshirish.

Darsda muammoli vaziyatni yaratish murakkab qiziqarli masaladir. Har bir dars muammoli bo'lishi mumkin va lozim. Muammoli darsning

o'ziga xosligi darsni o'tish uchun uchun o'qituvchi undagi muammoli vaziyatlarni oldindan ajratishi, qo'yilgan muammoni yechishda o'quvchilarning faoliyatini jamoaviy bir fikr asosida olib borishini belgilovchi metodik vositalarni aniqlash, darsning barcha tafsilotlarni puxta o'ylab chiqish kerak.

Hozirgi darslar shunday tarzda tuzilishi kerakki, unda qo'yilgan muammoga o'quvchilarda katta qiziqish uyg'onsin, uning bilim olishdagi tizimidagi ahamiyati hayotiy misollar yordamida ko'rsatilsin, yangi bilimlar olishga ehtiyoj tug'ilsin. Muammoli darsning birinchi bosqichida o'quvchilar qaysi tayanch bilimlarga asoslanib oldilariga qo'yilgan masalalarini jamoaviy holatda kelishib hal qilishlari mumkinligini aniqlash zarur. Bu bosqichda o'qituvchining ishi o'quvchilarning fikrini o'rganib ularga yordam berishi, ularning faolligini o'quv matni bilan ishlash va aqliy faoliyat uslublarini to'g'ri tanlashga qaratishdan iborat bo'lishi lozim. O'qituvchi tomonidan yo'naltirilgan muammoli vaziyatni o'quvchilar jamoalarga bo'linib taxlil qiladilar, o'zlarining idrok qilish vazifasini aniqlaydilar, uni xal qilishga o'zlarining bilim hamda darslarda egallagan ko'nikmalarini tahlil qiladilar.

Muammoli darsning kelgusi bosqichlari o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligidagi mustaqil faoliyati hisoblanadi. Izlanish ishlari jarayonida umumiy muammo jism (biror-bir narsa) yoki holatlarning biror muhim belgilarini kuzatish yoki o'rganilayotgan hududning muhim va muhim bo'lmagan xususiyatlarini aniqlash bilan bog'liq qator vazifalarga ajratilishi mumkin. Izlanish jarayonida taqqoslash, biron-bir narsani tahlil qilish, umumlashtirish kabi fikrlar faoliyati juda keng qo'llaniladi.

Bilimlarni muammoli bayon qilish ayniqsa Jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida keng qo'llanilishi mumkin, Muammoli o'qitish elementlari darslarda va amaliy mashg'ulotlarda juda samarali hisoblanadi.

### **NATIJALAR**

Muammo qo'yilishi va uni mustaqil xal qilinishi bolalarning bilimga qiziqishini, ya'ni ularning o'rganayotgan topshiriq va masalalarni chuqur mushohada qilish va ularni yechishga o'rganishga intilishlarini rahbatlantirish bo'lib xizmat qiladi. Ma'lum bir muammoni xal qilishda asosiy vaqtni amalaviy masalalar egallaydi. Quyida biz dasturlashtirilgan muammoli o'qitishning qo'llanilishi mumkin bo'lgan variantal bilan tanishib chiqamiz.

1. Tezis tipidagi kartochka – topshiriqlar.

Muayyan raqamlangan kartochkada dunyo davlatlarining nomlari keltiladi. O'quvchilar javoblarida kerakli davlat yoki belgining nomini yozmaydilar, faqat tegishli raqamni bayon qiladilar.

**Topshiriq.** Jahondagi a) quruqlik ichkarisidagi; b) yarimorol

c) orol-davlatlarni sanab bering.

**Tezislar:**

- |                  |                |                |
|------------------|----------------|----------------|
| 1. O'zbekiston;  | 8. Shvetsiya   | 15. Islandiya. |
| 2. Turkmaniston; | 9. Fillipin    |                |
| 3. Hindiston     | 10. Yaponiya   |                |
| 4. Arabiston;    | 11. Shri-Lanka |                |
| 5. Veytnam       | 12. Mongoliya  |                |
| 6. Nepal;        | 13. Paragvay   |                |
| 7. Norvegiya     | 14. Kuba       |                |

Javoblar: a) 1, 2, 6, 12, 13; b) 3, 4, 5, 7, 8; c) 9, 10, 11, 14, 15

**Topshiriq.** Hududiy mehnat taqsimoti sodir bo'lishi uchun muhim bo'lgan belgilarni keltiring.

Tezislar.


1. geografik o'rni o'ziga xos;
2. mamlakat miqyosida ixtisoslashgan;
3. ishlab chiqarilayotgan mahsulot mahalliy ehtiyojdan ancha ko'p bo'lishi;
4. majmualari xo'jalik shakllangan;
5. uni ishlab chiqarish mamlakatning boshqa qismlardagidan arzon tushishi;
6. tabiiy boyliklar hamda ishchi kuchi bilan ta'minlanishida boshqa rayonlardan farqlanuvchi hududlar;
7. ishlab chiqarishning xomashyo zaxirasi ko'p yillarga yetarli bo'lishi;
8. mahsulot ayirboshlanganda transport xarajati arzon bo'lishi.

**Javoblar:** 3, 5, 7, 8.

Bilimlarni matn bilan hisobga olishdan individual so'rashda ham, butun sinf bilimini hisobga olishda ham foydalanish mumkin.

**II. Klaster usuli.**

O'quvchilarning bilimini tekshirishda klaster usuli alohida ahamiyatga ega, chunki ularda o'yin elementlari bor. Misol tariqasida "Jahon yer fondining tarkibi" 2018-yil ma'lumotlariga ko'ra klasterdagi ranglarga monand ravishda foizlarini joylashtiring.



**III. PISA test usuli. Quyidagi davlatlarning nomini aniqlang. Ularning umumiy o'xshash jihatidan kelib chiqib, bu yerda yana qaysi davlat bo'lishi kerakligini toping.**



### **MUHOKAMA**

Oliy o'quv yurtlarida malakali geograflar tayyorlashda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kurslarining o'рни benihoya kattadir. Chunki bu kursni o'qitish talaba-yoshlar muammoli ta'lim strukturalari muhim o'rin egallaydi. Pedagogika fanining muhim vazifalaridan biri bu o'quv jarayonini faollashtirishdir. Bugungi kunda o'quv jarayonining maqsadi maktab o'quvchilariga mustaqil ravishda yangi bilimlarni egallashga o'rgatish, yangi muammolarni qo'yish va mustaqil ravishda echish qobiliyatini rivojlantirishdir. Ijodiy faoliyat maktab ta'limi mazmunining asosiy elementlaridan biriga aylanmoqda. Bunday tadbirlar tajribasini o'quvchilarga "tayyor" bilimlarni etkazish yoki model bo'yicha bajariladigan o'quv mashqlarini tashkil etish orqali etkazish mumkin emas. U maktab o'quvchilarida muammoli-kognitiv vazifalarni hal qilish jarayonida ishlab chiqilgan.

Muammoli o'qitish texnologiyasi o'qituvchi asosiy nazariy savollarni va ularni amalda qo'llash qobiliyatini bilgan taqdirdagina to'liq amalga oshirilishi mumkin. Shundagina muammoli ta'limning asosiy maqsadiga erishish mumkin: talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlari va mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish.

Muammoli o'rganish nima? bu "o'quvchilar dasturiy material mazmuni asosida muammoli va muammoli vazifalarni hal qilish jarayonida muntazam ravishda ishtirok etadigan bunday mashg'ulotdir". Ushbu ta'rifdan ikkita xulosa kelib chiqadi:

- muammoli ta'lim talabalar uchun mumkin bo'lgan muammolarni mustaqil ravishda to'liq yoki qisman hal qilishni o'z ichiga oladi;
- ushbu muammolarni hal qilish uchun talabalar ularni muammolarni echishga undaydigan vaziyat yaratishi kerak.

Shuning uchun, "muammo" tushunchasini belgilashdan tashqari, "muammoli vaziyat" tushunchasini ham aniqlash kerak. "Muammoli vaziyat o'quvchining amaliy yoki intellektual faoliyat sohasida paydo

bo'lgan to'siqqa munosabatini tavsiflaydi." Aslida, muammoli vaziyat har doim sezilgan qiyinchiliklar va muammoni hal qilish uchun rag'batlantirish fonida paydo bo'ladi. Ushbu shartlarsiz hech qanday muammoli vaziyat bo'lmaydi. Qarama-qarshilik mavjudligini anglab etish va uni yengib o'tishni xohlash kerak.

Muammoni o'rganishda uchta asosiy usul qo'llaniladi:

1. Muammoli taqdimot.
2. Qisman qidiruv;
3. Tadqiqot.

Ushbu usullardan foydalanish o'qituvchi vazifani qo'yganida samarali bo'ladi: allaqachon mavjud bo'lgan bilim va ko'nikmalar asosida faoliyatning sifat jihatidan yangi usullarini shakllantirish - maktab o'quvchilarining kashf etilgan yoki qo'yilgan muammolarni mustaqil ravishda shakllantirish va echish qobiliyati, farazlar va ularni sinash usullarini taklif qilish qobiliyati, tajribalarni rejalashtirish.

Muammoni hal qilish usullari o'quvchilarning fikrlash tarzini rivojlantirishga yordam beradi, shu bilan ular o'quv materialini mustaqil ravishda va samarali ravishda boshqarishi, uning ahamiyati, murakkabligi, olingan bilimlarning boshqa bilimlarga nisbatan qo'llanilish doirasini baholaydilar. Muammoli ta'lim usullari har bir o'quvchining individual darajasida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

### **XULOSA**

Yuqoridagilarni umumlashtirib shunday xulosaga kelish mumkinki, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani o'qitishda muammoli ta'limdan foydalanish metodikasi o'quvchilar hamda oliy o'quv yurti talabalari mavzularni mustaqil va jamoaviy o'rganish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanidagi ma'lum bir voqea-xodisalarga o'z fikrlarini erkin bayon qila olish ko'nikmalarini shakllantirishdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. V.N.Fedorko, N.I.Safarova, J.A.Ismatov, E.Y.Nazaraliyeva – 10-sinf Jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi.
2. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya – Vikepediya internet sayti.
3. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrasi O'zMU – nuu.uz internet sayti.
4. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslik – Toshkent “Noshir” 2019. 3-bet.
5. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslik – Toshkent “Noshir” 2019. 45-bet

6. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi – “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent – 2019

7. Isayev A.A., Abdurahmonova H. Farg'ona vodiysi shahar aglomeratsiyalari rivojlanishiga transport omilining ta'siri // Journal of Geography and Natural Resources.

<http://sjifactor.com/passport.php?id=22047>

<https://topjournals.uz/index.php/jgnr> <https://doi.org/10.37547/supsci-jgnr-02-02-02>

8. .A.A. Исаев Ўзбекистонда автомобиль ва жамоат транспортида йўловчи ташиш динамикасидаги ўзгаришлар // Journal of Geography and Natural Resources. <http://sjifactor.com/passport.php?id=22047>

<https://doi.org/10.37547/supsci-jgnr-02-03-03>